

AMALIY SAN'AT TARIXIDA KULOLCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kambarov Muradjon Kodirovich
Andijon davlat universiteti
“Tasviriy va amaliy san’at”
kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi va qadimgi kulolchilik davrlari, kulolchilik san’ati tarixi, uning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari haqida so’z yuritiladi. Bugungi kunda kulolchilikni rivojlantirish borasida olib borilayotgan amaliy va ijodiy ishlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Kulolchilik, sopol, bezak, loy, neolit davri, badiiy bezatish usullari, kulolchilik maktablari, kulol, charx, angob.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются современные и древние гончарные периоды, История гончарного искусства, его становление, этапы развития. Речь идет о практической и творческой работе, которая ведется сегодня по развитию гончарного дела.

Ключевые слова: керамика, керамика, орнамент, глина, неолит, методы художественного оформления, школы гончарного дела, керамика, обожженный камень, ангоб.

Abstract:

This article examines the modern and ancient pottery periods, the history of pottery, its formation, and stages of development. We are talking about the practical and creative work that is being carried out today on the development of pottery.

Keywords: ceramics, ceramics, ornament, clay, Neolithic, methods of decoration, pottery schools, ceramics, baked stone, angob.

O'zbekistonda amaliy san'at turlarini rivojlantirish, uni targ'ib etish bo'yicha Respublikamiz miqyosida ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida Prezidentimiz tomonidan imzolanyotgan qaror loyihalarida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan amaliy san'at turlarini rivojlantirish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 20.12.2017 yildagi 1003-sonli “O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. U Toshkent shahrida O'zbekiston amaliy san'at muzeyi negizida tashkil etildi.

Muzey faoliyatining asosiy yo'nalsihlari:

- amaliy san'at va milliy hunarmandchilining bugungi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos maktablarining an'analari hamda amaliy san'at va hunarmandchilik asarlarini asrash, xalqaro miqyosida keng targ'ib etish, ilmiy o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish;
- xalqimizning amaliy san'at va milliy hunarmandchilik tarixi hamda boy madaniy merosini, uning unsoniyat tarixidagi rolini haqqoniy yoritish;
- mamlakatimizning madaniyat, san'at va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarini keng targ'ib qilishga qaratilgan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish;
- xalqimizning madaniy boyligi hisoblangan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini asrab-avaylash, o'rganish, boyitib boorish, namoyish etish, dunyo jamoatchiligiga tanitish va targ'ib etish;
- noyob eksponatlarni namoyish etish orqali fuqarolarda, ayniqsa yosh avlodda milliy umum insoniy qadryatlarga hurmat, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalash va kuchaytirish;
- muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini ilmiy tadqiq qilish ishlarini amalga oshirish va ularning natijalarini e'lon qilib borish. [1]

Amaliy san'atning kulolchilik turi bo'yicha ham qator ustalar ijod mxsuli ham mazkur muzeyning fondidan joy olgan. Bugungi kunda amaliy san'at muzeylari Respublikamizning barcha viloyatlari kabi Andijon viloyatida ham o'z faoliyatini olib bormoqda.

Vazirlar mahkamasining 11.12.2017 sanasidagi 975 sonli qaroriga asosan 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qarorida Andijon viloyatidagi mavjud Asaka, Buloqboshi, Shahrixon, Ulug'nor, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Izboskan tumanlaridagi muzeylar faoliyati 2018 yilda tugatilib, barcha muzeylar fondidagi eksponatlar, kolleksiyalari, moddiy texnik bazasi 2017 yilda qayta tashkil etilgan Andijon viloyati tarixi va madaniyati muzeyiga topshirildi. Bugungi kunda Andijon kulolchilik san'ati tarixidan ma'lumot olish uchun mazkur muzey o'zining bor imkoniyatlaridan kelib chiqib xizmat qilmoqda. [2]

Muzey fondida juda ko'plab Andijon viloyatlatidan topilgan sopol buyumlar saqlanib kelinmoqda. Barcha sopol buyumlar davrlarga bo'linib muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun taqdim etilmoqda. Eksponatlar orasida miloddan avvalgi davrlardan tortib XIX-XX asr usta kulollar ijod maxsullari ham mavjud. Mazkur eksponatlar muzeyning ikkinchi qavatidagi amaliy san'at bo'limidan joy olgan.

Oynavand qilingan birinchi eksponatlar jamlanmasida 2 raqam ostida Andijon viloyati Jalaquduq tumanidan topilgan II-I ming yilliklarga oid bezakli idishlar to'plami qoldiqlari joylashgan. 4 va 5 raqam bilan huddi shu davrga mansub sopol xumlar , 6 raqam bilan sopol patnis, sopol vazaning bir qismi joy olgan. Bu davrlarga oid kulolchilik sopol buyumlari ishlanish tenologiyasida sopol buyumlar sirtiga qizil angob bilan bezak berilgan. Sopol buyumlar tekis yuzaga ega bo'lgunicha yaxshilb ishlov berilganini bilish qiyin emas. Bu

davrda sopol buyumlar simmetrik tarzda yasalgan. Mazkur hududda olib borilgan izlanishlar natijasida ko'plab qimmatli topilmalar qayd etilgan. Bu oynavand qilingan sopol buyumlardan tashqari aynan Andijon viloyati Jalaquduq tumanidan topilgan II-I ming yilliklarga oid sopol qozon va boshqa kulolchilik buyumlari keying eksponatlar to'plamidan joy olgan. Sopol qozon 2 tartib raqami bilan qayd etilgan. Bugungi kungacha yaxsh saqlanib qolgan noyob topilma qatorida sopol vaza ham joy olgan. To'plamdan tor bo'g'izli hum va sopol xurmachalar ham mazkur davr kulolchiligi haqida ma'lumotlar berib turibdi. Sopol buyumlari o'ziga xos shu davr uchun qulay bo'lgan uy ro'zg'or buyumlarini maxsus kulolchilik asboblari yordamida tayyorlaganlar. Bu davrda Dalvarzintepada hunarmandchilik yaxshi taraqqiy etganidan darak beradi.

Muzey fondida Andijon viloyatining turli manzillarida olib borilgan izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan buyumlar o'ziga xos tarzda davrlarga, topilgan manzillariga qarab joylashtirilgan. Andijon viloyatining Asaka tumanida joylashgan Sho'rtepa manzilgohidan topilgan topilmalari qatorida ham qimmat baho sopol buyumlari topilgan. Bu buymlar ham muzey fondidan joy olgan. E'tiborlisi bu sopol buyumlari VI-VII-VII asrlarga ta'luqli. Sopol buyumlarining tashqi qismida to'liq-to'liq qilib maxsus iz qoldiruvchi asbob bilan o'zgacha bezak berilgan. To'plamda dastali sopol buyumlari o'rin olgan. Ularning ichida maxsus suyuqlik uchun mo'ljallangan jo'mrakli va dastali humga davrining usta kuloli tomonidan tayyorlanganini anglash qiyin emas. Bu davrda kulolar sopol buyumlarining bejirim bo'lishidan tashqari sopol buyumdan foydalanish vaqtida qulaylik bo'lishiga urg'u berishgan. [3]

Muzeydan joy olgan kulolchiik buyumlari qatorida Andijon viloyatining turli manzillaridan topilgan betakror sopol buyumlari to'plami barcha tashrif buyuruvchilarni o'ziga doimo jalb qilib kelmoqda. Ular orasida animalistik ko'rinishga ega zoomorf idish ham bor. Sopol buyum suyuqlik quyish uchun ya'ni sharob quyish uchun mo'ljallangan dekorativ ko'rinishga ega sopol buyumlarini eslatadi. Sopol buyumning tor bo'g'izli va oddiy dattagi mavjud. Sopol buyumning boshqa tarafida jonivorning bosh qismi bo'rtib ishlangan. Bu to'plamdan sopol buyumga qattiq jism bilan tirnab naqsh tushirish texnologiyasi orqali yaratilgan ko'zacha ham joy olgan.

To'plamning markazida murakkab naqshga ega sopol humcha joy olgan. Humchaning ikki chetida singan tutgichlari o'rni mavjud. Humchaga qizil angob bilan naqsh tushirilgan bo'lib, humchaning qisqarib boruvchi qismida yotiq islimiy naqsh tushirilgan. Pastgi humchaning markazida sopol buyumning shakliga mos ravishda qisqarib boruvchi naqsh ishlangan. Bu ikki naqshlarni chiziqlar bilan yakunlangan. Sopol buyumning ichki tomonida naqsh tushirilmagan. Tashqi tomoni silliqlangan. Bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolgan sopol buyumlaridan biri bo'lib muzey ekponatlarini boyitib turibdi. [4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. A. Nozilov O'rta Osiyo dizayni tarixidan Toshkent "O'zbekiston" 1998

2. M. K. Rahimov O'zbekiston badiiy keramikasi Toshkent 1961
3. L. Jadova Современная керамика Узбекистана 1963
4. С. С. Булатов, М. О. Аширова Амалий санъат қисқача луғати 1992
5. M. Sh. Mannonova "O'zbek kulolchilik terminologiyasi" dissertatsiya
6. G.Shatskiy. Koyalardagi kadimgi rasmlar. T.; 1973.
7. . С.Булатов. "Халқ таълими" журнали. Т.; 1998, 1-сон

